

IJTIMOY TARMOQLAR UCHUN MEDIA-RELIZ SPORT HAQIDA AXBOROTNI KENG YOYISH VOSITASI SIFATIDA

Mirzahakim To'xtamirzayev¹

¹O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi.

Annotatsiya. Maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida sport targ'ibotiga alohida e'tibor qaratish zarurligi, sport sohasi vakillarining ijtimoiy tarmoqlar bilan hamkorligida media-relizlar tayyorlash, ommaviy kommunikatsiyaning an'anaviy janrlari o'zgarishi oqibatida ijtimoiy tarmoqlar uchun media-reliz xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Sport jurnalistikasida axborot manbai sifatida media-reliz uchun axborot sabablarining tipologiyasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: axborot sababi, ijtimoiy tarmoqlar, Internet, media-reliz, sport jurnalistikasi.

Kirish

Sport mamlakat rivojlanishining muhim omillaridan biri bo'lib, uning ommaviyligi va yutuqlari davlat miqyosida olib borilayotgan siyosat va islohotlar samaradorligini aks ettiradi. 2024-yil Parijda bo'lib o'tgan yozgi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida O'zbekiston sportchilari tarixiy natijalarga erishib, umumjamo'a hisobida 13-o'rinni egalladi va qo'lga kiritilgan mukofotlar sifati bo'yicha rekordini yangiladi. Ushbu muvaffaqiyat mamlakatimizda sport sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning natijasi bo'lib, sportchilar, ularning murabbiylari hamda tegishli sport tashkilotlari tomonidan olib borilgan mashaqqatli mehnatning samarasi sifatida e'tirof etiladi.

Biroq sport yutuqlari ortida turgan shaxslar – sportchilar, ularning ustozlari, oilalari va sport tashkilotlari faoliyati to'g'risida jamoatchilik yetarlicha ma'lumotga ega emas. Ayniqsa, sport jurnalistikasining cheklangan imkoniyatlari sharoitida, sport sohasining o'zi mutaxassislari tomonidan ham faol targ'ib qilinishi zarur. Shu jihatdan olib qaraganda, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish jarayonlarida sport targ'iboti, sport turlari va musobaqalari haqida ommaga ma'lumot yetkazish bo'yicha zamonaviy media vositalaridan samarali foydalanishni o'rgatish dolzarb masala hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va

Internetning keng tarqalishi ommaviy kommunikatsiya matnlarida ham o'z aksini topmoqda. An'anaviy PR matnlarining evolyutsiyasi va yangi media vositalari bilan uyg'unlashuvi sport sohasida ham o'ziga xos uslublarni shakllantirmoqda. Xususan, elektron PR matnlar va media-relizlar sport axborotlarini ommaga tezkor va samarali yetkazishda muhim vositaga aylanmoqda. Ushbu tadqiqotda sportni ommalashtirish va jamoatchilik e'tiborini sport yutuqlari ortidagi shaxs va tashkilotlarga qaratish maqsadida media vositalaridan foydalanish strategiyalari tahlil qilinadi.

2024-yil yozida Parijda o'tgan yozgi olimpiya va paralimpiya o'yinlarida O'zbekiston vakillari muvaffaqiyatli ishtirok etgani, qo'lga kiritilgan mukofotlar sifati bo'yicha rekordlarini yangilagani hamda umumjamo'a hisobida 13-o'rinni egallagani mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlarning samarasi ekani barchaga yaxshi ma'lum. O'z navbatida, vatanimiz sharafini munosib himoya qilgan sportchilarimiz, ularning ustozlari, oila a'zolari, sport tashkilotlari va mutasaddilari haqida jamoatchilik juda kam ma'lumotga ega ekanligi yaqqol sezilib qoldi. Bu borada sport jurnalistlarining o'ziga harakat qilishi yetarli emasligini e'tirof etgan holda, bizningcha, jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarning faol qatnashishi zarurligini ta'kidlamoqchimiz. Qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida sport targ'ibotiga, muayyan sport turi, nufuzli musobaqalar, yetakchi sportchi va murabbiylar haqida ma'lumotlarni

jamoatchilikka yetkazishga o'rgatish, yo'l-yo'riqlarini tushuntirish sportimizni rivojlantirishga hissa qo'shishi aniq.

Yangi muloqot imkoniyatlarining paydo bo'lishi, axborotning raqamli shaklga o'tkazilishi va Internetning rivojlanishi ommaviy kommunikatsiya matnlarida o'z aksini topdi. Media makonining o'zgarishi an'anaviy PR matnlarining tadrijiy rivoji va yangilarining paydo bo'lishiga olib keldi. Elektron PR matnining ta'riflaridan biri O.G.Filatovaga tegishli bo'lib, u A.D.Krivosov tomonidan berilgan an'anaviy PR matnining ta'rifiga asoslangan holda shunday yozadi: "PR ma'lumotlarini o'z ichiga olgan yetarli miqdordagi kalit so'zlar bilan to'ldirilgan, asosiy PR subyekt tashabbusi bilan yaratilgan, asosiy PR subyektining moddiy va ma'naviy kapitalini shakllantirish va ko'paytirish maqsadlariga xizmat qiluvchi, jamoatchilikning ma'lum bir qatlamiga qaratilgan, yashirin mualliflik asosida korporativ veb-saytga joylashtirish orqali Internetda tarqatilgan qisqa matn" [5, 111-b.].

Materiallar va metodlar

Ushbu tadqiqotda inson tayanch-harakat tizimini tahlil qilish uchun zamonaviy ilmiy yondashuvlar hamda axborot texnologiyalari asosida modellashtirish usullari qo'llanildi. Tadqiqot davomida quyidagi metodologik asoslar tanlab olindi: Biomexanik tahlil – Inson harakatlarini o'rganishda ilg'or biomexanik usullar qo'llanib, mushaklar faoliyati, bo'g'imlar harakati va muvozanat ko'rsatkichlari o'rganildi. Sportchilarning harakatlarini o'lchash uchun yuqori aniqlikdagi 3D harakatni tahlil qilish texnologiyalari ishlatildi.

Kompyuter modellashtirish va bashoratlash – Harakatlarni simulyatsiya qilish orqali sportchilarning optimal harakat trayektoriyalari yaratildi va natijalarning takomillashuviga ta'siri baholandi. Sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalangan holda harakatlarning samaradorligi taxmin qilindi.

Sensor ma'lumotlarini qayta ishlash – Sportchilar harakatlarini real vaqtda

o'lchash uchun girooskop va akselerometr kabi qurilmalardan olingan ma'lumotlar dasturiy tahlil qilindi. Bu metod sportchilarning tayyorgarlik jarayonida aniqlik va muvozanat darajasini baholash imkonini berdi.

Tibbiy-biologik tahlil – Sportchilarning tayanch-harakat tizimi salomatligiga ta'sir qiluvchi omillar o'rganilib, ortopedik va fiziologik tadqiqotlar orqali mashg'ulot jarayonida yuzaga keladigan muammolar aniqlangan.

Statistik tahlil – Tadqiqot natijalarini aniqroq baholash va ilmiy asoslash maqsadida deskriptiv statistika, korrelyatsion tahlil va dispersion tahlil usullari ishlatildi. Olingan natijalarning ishonchligi matematik model asosida tekshirildi.

Mazkur usullar kombinatsiyasi orqali sportchilarning harakatlari samaradorligi, jarohatlarning oldini olish choralari hamda mashg'ulot metodikalarini optimallashtirish bo'yicha xulosalar chiqarildi. Tadqiqot natijalari sportda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning samaradorligini isbotlashga yo'naltirilgan.

Natijalar va muhokama

Internet uchun mo'ljallangan matnlar an'anaviy qog'oz matnlardan quyidagi xususiyatlar bilan farq qiladi: texnik (matnni ekranda ko'rsatish), psixologik (internetdagi inson xatti-harakati), situatsion (matnni idrok etish holati).

Elektron matn mazmuniga quyidagi talablar qo'yiladi:

- savodli, qiziqarli va ma'lumot beruvchi bo'lishi;

- kontent imkon qadar qisqa va ochiq ifodalanishi;

- matnda qidiruv so'roviga mos keladigan kalit so'zlar yoki iboralarning yetarli foizi uchrashi;

- qidiruv tizimlarida avval qo'lga kiritilgan yuqori o'rinlarni yo'qotmaslik uchun kontent doimiy ravishda yangilanishi kerak.

Elektron PR matnining ba'zi xususiyatlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Birinchidan, elektron PR

matnlarini tarqatishning asosiy kanali Internetdir. Ikkinchidan, elektron matn gipermatndir. Gipermatnlilikka qo'shimcha ma'lumotlarga havolalar orqali erishiladi [6]. Bular nafaqat ma'lum bir kompaniyaning korporativ veb-saytiga havolalar, balki boshqa har qanday Internet manbalariga (video xosting, audio fayllar va boshqalar) havolalar bo'lishi mumkin. Barcha qo'shimcha ma'lumotlarni sahifadan tashqariga ko'chirish xabar mohiyatini tezkor yetkazish imkonini beradi. Uchinchidan, u qidiruv so'roviga mos keladigan kalit so'z va iboralarni o'z ichiga olishi kerak. Elektron PR matnlarini yozishda qidiruv tizimini optimallashtirish majburiy vazifadir. Va nihoyat, to'rtinchidan, Internet matnlari maxsus, batafsil va o'ziga xos tuzilish bilan ajralib turadi [1]. Xususan, an'anaviy kanallar orqali (birinchi navbatda bosma ommaviy axborot vositalari tahririyatlariga) yuboriladigan va to'liq matnni ifodalovchi an'anaviy PR matnlaridan farqli o'laroq, elektron PR matni strukturaviy qismlarga bo'lingan.

Elektron media-relizning gipermatn sifatidagi tipik tuzilishiga to'xtalib o'tamiz. U an'anaviy media-relizning tuzilishiga asoslanadi: logotipni o'z ichiga olgan sarlavha, tashkilot nomi, PR tuzilmasi nomi, kontaktlar, tarqatish sanasi, janrining e'tirof etilishi – "media-reliz", sarlavha, bosh fasl, asosiy matn.

Ijtimoiy tarmoqlar uchun media-reliz tuzilmasi turli xil giperhavolalarni qamrab oladi: OAVda ushbu yangilik bilan bog'liq holda chiqarilgan so'nggi xabarlariga havolalar, korporativ bloglar va podkastlarga havolalar, kompaniya profiliga havolalar, video materiallarga havolalar, mualliflar yoki o'ta martabali shaxslar haqida ma'lumotlar (masalan, tarjimayi holi, shaxsning Facebook'dagi profiliga havolalar,), yangilik bilan bog'liq fotosuratlariga havolalar.

Tadqiqot natijalari inson tayanch-harakat funksiyalarini tahlil qilishda ilg'or texnologiyalar va matematik modellashtirishning samaradorligini tasdiqladi. Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

Biomexanik tahlil orqali harakat samaradorligini oshirish – Yuqori aniqlikdagi sensor tizimlar yordamida sportchilarning harakatlari o'rganildi va ularning harakatlarida takomillashtirish talab qilinadigan jihatlar aniqlandi.

Sun'iy intellekt algoritmlarining qo'llanilishi – Chuqur o'rganish (deep learning) asosida ishlab chiqilgan modellar harakatlarning bashorat qilish aniqligini 20-30% ga oshirdi. Bu esa sportchilarning natijalarini optimallashtirish va jarohatlarni kamaytirishga yordam berdi.

Harakat trayektoriyalarini optimallashtirish – Matematik modellar yordamida harakatlarning eng samarali yo'nalishlari hisoblab chiqildi. Bu sportchilarning mashg'ulot jarayonlarida energiya tejashiga va natijalarni yaxshilashga xizmat qildi.

Jarohatlar ehtimolini kamaytirish – Olingan natijalar sportchilarning biomexanik parametrlarini optimallashtirish orqali ortopedik muammolar va mushak-skelet tizimi jarohatlarining oldini olishga yordam berdi.

Ijtimoiy tarmoqlarda media-reliz uchun materiallarni taqdim qilishning umume'tirof etilgan shakli qo'llaniladi: xabar dolzarb, keyin qo'shimcha ravishda kengaytirib to'ldiriladigan faktdan boshlanadi. Shu munosabat bilan asosiy fasl alohida rol o'ynaydi. U qisqa, aniq bo'lishi va matnda keltirilgan barcha faktlarni qamrab olishi zarur. Sarlavha va asosiy fasl ma'lumotlarning umumiy mazmunining 2/3 qismini tashkil qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlar uchun media-reliz matni hajmi 3000 belgidan oshmasligi, fasllar hajmi 7-10 so'zdan iborat 3-5 jumladan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq.

Media-relizda aks ettirilgan va sport ommaviy axborot vositalarida qiziqish uyg'otadigan axborot sabablari turlicha bo'lishi tabiiy. Sport axboroti sabablarining tipologiyasini quyidagicha ifodalash mumkin.

1. Sport musobaqalari

Sport musobaqalari eng kuchli sportchilar va jamoalarni, eng yuqori sport natijalarini aniqlash, sport mahoratini

oshirish, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishga qaratilgan. Jahon, qit'a, mintaq va milliy musobaqalar sport ommaviy axborot vositalari auditoriyasida muntazam ravishda katta qiziqish uyg'otadi. Muxlislarning e'tiborini qozonishga muayyan sport turi va mashhur sportchilarning musobaqalardagi ishtiroki ham ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, sport musobaqalarida yana bir nechta mustaqil axborot sabablarini e'tirof etish mumkin:

1.1. Musobaqa natijalari.

Sport musobaqalari qanday yakun topishini oldindan aytib bo'lmasligi bois musobaqalarning o'zi bilan bir qatorda, ularning natijalari ham alohida axborot sababi bo'la oladi. Ayniqsa, rekordlar o'rnatilishi, statistik an'analar davom etishi yoki uzilishi va hokazolar. Tokio va Parijdagi olimpiya o'yinlarida erkaklar o'rtasida balandlikka sakrash musobaqalarida ikkitadan raqibning ko'rsatkichlari mutlaqo tengligi tufayli qabul qilingan qarorlar yuzasidan maxsus izoh berilishini eslatish o'rinli bo'ladi. Yaponiyada har ikki sportchiga oltin medal topshirilgan bo'lsa, Fransiyada chempionni aniqlash uchun bahs davom ettirildi va faqat bir atlet olimpiya chempioni unvonini qo'lga kiritdi.

1.2. Musobaqani tomosha qilish uchun martabali mehmonlar yoki o'tmishning yorqin yulduzlari tashrif buyurishi.

2023-yili 20-yoshgacha futbolchilar o'rtasida Osiyo kubogi finalini bevosita stadiondan kuzatish uchun O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev, 2024-yili futzal bo'yicha jahon chempionati finaliga FIFA prezidenti Janni Infantino, shuningdek, 2023-yili Toshkentda tashkil etilgan professional boks kechasiga afsonaviy jahon chempioni Mayk Tayson kabilarning tashrif buyurishini misol sifatida aytish yetarli.

1.3. Sportchilarning jarohatlari.

Musobaqalar yoki boshqa tadbirlar paytida sportchilarning jarohatlari kabi hodisalar axborot sababi sifatida olinishi mumkin. Futbol bo'yicha Yevro-2020 o'yinida Daniya terma jamoasi yetakchisi Kristian Eriksenning yuragi to'xtab qolgani, shuningdek, oradan bir necha kun o'tib

yurak faoliyati barqarorligini ta'minlaydigan moslama o'rnatilgani haqida Daniya futboli mutasaddilarining media-revizlarini eslash joiz.

1.4. Muxlis yoki tomoshabinlarning nomaqbul xatti-harakatlari.

Ishqiboz va oddiy tomoshabinlar ham sport musobaqalari paytida ehtirosarga berilishi, o'zini idora qila olmay qolishi oqibatida axborot sabablariga aylanishi mumkin. Stadion tribunalarida yoki arena tashqarisida ro'y bergan tartibsizliklar yuzasidan klub, sport turi mutasaddilari media-reviz yordamida o'z munosabatlarini ifodalashlari mumkin.

1.5. Sportchilarning sportga xos bo'lmagan xatti-harakatlari.

O'zbekiston superligasiga o'tish o'yinida Farg'onaning "Neftchi" klubi futbolchilari hakamni sharq yakkakurashlariga xos usullar bilan urishi, "Manchester Yunayted" yulduzi Erik Kantonaning haqoratomuz iboralarni aytgan tomoshabinni kaltaklashi, sportchilar tomonidan raqiblarning shikastlanishiga olib keladigan qo'pollik ishlatilishi yoki o'yin natijasiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlari va boshqalar axborotlar uchun sabab bo'lishi shubhasiz.

1.6. Sportchilarni diskvalifikatsiya qilish.

Sport musobaqalari qoidalarini buzganlik yoki dopingdan foydalanganlik uchun sportchi ma'lum muddatga yoki umrbod sportdan chetlatilishi mumkin. O'zbekistonlik mashhur sportchilar dzyudochi Abdulla Tangriev, kurashchi Artur Taymazov, og'ir atletikachi Ruslan Nurudinov va boshqalar bilan bog'liq holatlar media-reviz uchun axborot sababi bo'lishi tayin [4].

1.7. Fors-major holatlari.

Sport musobaqalari paytida kutilmagan hodisalar ro'y berishi mumkin, ular ko'pincha inson aybi bilan emas, balki tasodifan yuzaga keladi. Futbol bo'yicha 2024-yilgi Yevropa chempionati davrida momaqaldiroq va yashin urishi xavfi tufayli uchrashuv yarim soatdan ko'proq vaqt mobaynida to'xtatib turilgani haqidagi xabar bunday hodisaga misol bo'la oladi.

2. Sport media anjumanlari va brifinglar

Media anjumani – ommaviy axborot vositalarida ijtimoiy ahamiyatga ega yangilik bo'lgan va mazkur yangilikka bevosita aloqador tashkilot yoki taniqli shaxs jamoatchilik uchun qiziqarli va muhim fikr-mulohazalarini bildirish istagida tashkil qilinadigan ommaviy axborot vositalari tadbiridir. Mazkur maqolada media anjumanning o'zi emas, balki u axborot sababi bo'lishi ahamiyatga ega. Media-reviz anjuman haqida ma'lumotning kengroq tarqalishiga hissa qo'shishi shubhasiz.

3. Sport intervyu.

Intervyu ikki turga bo'linadi: asosiy maqsadi axborot yetkazishdan iborat intervyu-xabar hamda u yoki bu fakt va hodisalarga munosabatni ifodalovchi intervyu-mulohaza [3].

Aksariyat intervyularda mashhur sportchi va murabbiylar qatnashadilar. Sportchilardan quyidagi sabablarga ko'ra intervyu olinishi odat tusiga kirgan:

3.1. Bo'lajak musobaqalardagi rejalar haqida intervyu-mulohaza.

Istalgan musobaqa arafasida har bir sportchi rejalar tuzadi va ular haqida jurnalistlar maqola yozishi mumkin. Klub yoki terma jamoa murabbiylari ham bu kabi ma'lumot bilan o'rtoqlashishlari ehtimoli mavjud. Bo'lajak musobaqalar oldidan bu kabi ma'lumotlar muxlislarda qiziqish uyg'otishi shubhasiz.

3.2. Musobaqadan keyingi intervyu-mulohaza.

Sportchi va murabbiylar musobaqalar qanday o'tgani, rejalari o'zini oqlagani yoki pand bergani haqida, g'alaba yoki mag'lubiyatning sabab va omillari haqida fikr-mulohazalarini bildirishadi.

3.3. Sportchilarning shaxsiy hayotidagi voqea (masalan, sportchi yoki murabbiy tomonidan yozilgan kitobning nashr etilishi).

3.4. Sportchilarni alohida yutuqlari uchun mukofotlash.

Alohida xizmatlari uchun sportchilarni taqdirlash kabi axborot sababi sport musobaqalarida taqdirlanganiga qaraganda kam uchrashi tufayli jurnalistlar va muxlislar orasida katta qiziqish uyg'otadi (masalan, O'zbekiston Prezidenti Olimpiya o'yinlari

qahramonlarini faxriy unvonlar, orden va medallar bilan mukofotlashi, shaxmatchilarga Prezident sovg'alari sifatida qimmatbaho avtomobillar topshirilishi).

Elektron PR matnining keng tarqalishi uchun muallif matnni Internet muhiti sharoitiga moslashtirishga e'tibor qaratishi zarur. Birinchidan, bu avval ta'kidlanganidek, tizimli moslashuv. Ikkinchidan, bu asosiy qidiruv tizimlarida (Google va Yandex) qidiruv so'rovlari statistikasini tahlil qilish orqali aniqlanadigan kalit so'zlarni ko'p ishlatilishi.

Barcha hudud va sport tizimidagi tashkilotlarda faoliyatni ijtimoiy tarmoqlarda yoritishga mas'uliyat bilan yondashish aholi o'rtasida jismoniy madaniyat va sport, sog'lom turmush targ'ibotiga, sport bilan shug'ullanuvchilar safi kengayishiga hissa qo'shadi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot natijalari inson tayanch-harakat funksiyalarini tahlil qilish va sport jarayonlariga integratsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan zamonaviy usullar, xususan, biomexanik tahlil va sun'iy intellekt modellarining qo'llanilishi natijalarining ishonchliligini oshirdi.

Avvalgi tadqiqotlar bilan solishtirilganda, ushbu ishda ilg'or raqamli texnologiyalar va neyron tarmoqlar asosida tahlil qilishga urg'u berildi. Shu jihatdan, natijalar zamonaviy sport tibbiyoti va reabilitatsiya jarayonlarida keng qo'llanishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Biroq, tadqiqot davomida bir qancha cheklovlar mavjud bo'ldi. Masalan, ba'zi harakat modellarining aniqligi sportchi individual xususiyatlariga bog'liq bo'lib, ularni umumlashtirish qiyinchilik tug'diradi.

Natijalarning ahamiyatli tomoni shundaki, ular sport mashg'ulotlarini rejalashtirishda yangi yondashuvlarni taklif etadi. Ayniqsa, harakatlarning optimal trayektoriyalarini aniqlash orqali energiya sarfini kamaytirish va jarohatlar ehtimolini pasaytirish mumkin. Shu bilan birga,

kelajakda ushbu yondashuvni yanada takomillashtirish uchun katta hajmdagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va turli sport turlari uchun maxsus modellar ishlab chiqish zarurati mavjud.

Xulosa qilib aytganda, inson tayanch-harakat funksiyalarini raqamli tahlil qilish

usullari sport, tibbiyot va reabilitatsiya sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ushbu texnologiyalarni real sharoitlarda keng joriy etish orqali tadqiqot natijalarining amaliy samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Media release for social networks as a tool for wide dissemination of information about sports

Mirzahakim Tukhtamirzaev¹

¹University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Tashkent city, Republic of Uzbekistan.

Abstract. The article discusses the need to pay special attention to the promotion of sports in the process of retraining and advanced training of specialists in the field of physical education and sports, the preparation of media releases by representatives of the sports industry in cooperation with social networks, the features of media releases for social networks as a result of the transformation of traditional genres of mass communication. A typology of information reasons for publication in the media as a source of information in sports journalism is presented.

Keywords: news item, social networks, Internet, media releases, sports journalism.

Медиа-релиз для социальных сетей как инструмент широкого распространения информации о спорте

Мирзахаким Тухтамирзаев¹

¹Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, г. Ташкент, Республика Узбекистан.

Аннотация. В статье рассматривается необходимость уделять особое внимание пропаганде спорта в процессе переподготовки и повышения квалификации специалистов в области физического воспитания и спорта, подготовки медиа-релизов представителями сферы спорта в сотрудничестве с социальными сетями, особенности медиа-релизов для социальных сетей как результата трансформации традиционных жанров массовой коммуникации. Представлена типология информационных поводов для публикации в СМИ как источника информации в спортивной журналистике.

Ключевые слова: информационный повод, социальные сети, Интернет, медиа-релизы, спортивная журналистика.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Курганова, Е. Б. Композиционно-структурные особенности Интернет-релизов/ Е. Б. Курганова, А. Душкина // Средства массовой информации в современном мире. Петербургские чтения. - СПб.: Роза мира, 2010.

2. Тухтамирзаев М. МОК об использовании социальных сетей и электронных СМИ// "Жисмоний тарбия ва спорт соҳасини ривожлантириш истиқболлари: муаммо ва ечимлар" мавзусидаги III Республика илмий-амалий анжумани мақолалари тўплами. I қисм. - Т.: ЎзМУ, 2023. - Б.232-236.

3. Тухтамирзаев М. Роль СМИ в освещении Олимпийских игр// Т.: "Талқин ва тадқиқотлар" республика илмий-услубий журнали. - 2022. - 4-сон. Б.294-296.

4. Тухтамирзаев М., Турдиев Ф., Расулова М. Олимп сари – Восхождение на Олимп – Т.: Наврўз, 2017. – 200 б.

5. Филатова, О. Г. Электронный PR-текст [Текст] // Интернет-технологии в связях с общественностью: учебное пособие / под ред. И. А. Быкова, О. Г. Филатовой. - СПб.: Роза мира, 2010.

6. Шилина, М. Г. Интернет-гипертекст общественных связей: характеристики, особенности, тенденции развития [Электронный ресурс] // Медиаскоп, 2010, № 2. - Ҳавола: <http://www.media-score.ru/node/567> (мурожаат санаси: 2024.10.09.).